XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-34-116-10-147-K/25 Olmaliq shahar

Olmaliq shahridagi yangi geografik obyektlarni nomlash to‘g‘risida

Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 21-noyabrdagi yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspert xulosasi, 2025-yil 28-noyabrdagi Toshkent viloyati hokimi Z.Mirzayevning 79-sonli komissiya yig‘ilish bayoni, Kadastr agentligining 2025-yil 27-noyabrdagi 03/08-13427-sonli xati va ekspert xulosasi hamda 2025-yil 2-dekabrdagi shahar hokimi Q.Xamdamovning 01/1/2-4300-sonli taklifini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-,24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari A.Subxonqulovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 21-noyabrdagi yig‘ilish bayoni va bayonnoma bilan tasdiqlangan ekspert xulosasi, 2025-yil 28-noyabrdagi Toshkent viloyati hokimi Z.Mirzayevning 79-sonli komissiya yig‘ilish bayoni, Kadastr agentligining 2025-yil 27-noyabrdagi 03/08-13427-sonli xati va ekspert xulosasi hamda 2025-yil 2-dekabrdagi shahar hokimi Q.Xamdamovning 01/1/2-4300-sonli taklifiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan shahardagi 1 ta yangi geografik obyekt nomi ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Olmaliq shahar Davlat soliq inspeksiyasi, shahar statistika bo‘limi, Davlat xizmatlari markazi, iqtisodiyot va moliya bo‘limi, shahar ichki ishlar bo‘limi,

Davlat Kadastrlari palatasi shahar filiali va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlariga:

- ushbu qaror bilan nomlangan 1 ta yangi geografik obyekt nomini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsin;

- shahar migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘linmasi tomonidan fuqarolarni ro‘yxatga olish va ro‘yxatdan chiqarish masalalariga alohida e’tibor qaratilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Olmaliq shahar filiali (R.Safaxanov) va shahar Davlat xizmatlari markazi (J.Mavlonov)ga:

-“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan geografik obyekt nomi o‘zgartirilishi munosabati bilan aholidan belgilangan tartibda davlat boji undirmaslik choralari ko‘rilsin.

5. Shahar hokimining o‘rinbosari (E.Abdurayimov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Olmaliq shahar bo‘limi (U.Pulatov), Obodonlashtirish boshqarmasi (J.Bakirov)ga 2 hafta muddatda ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosidagi geografik obyekt nomlari yozilgan metall ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni o‘rnatish, almashtirish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi (A.Subxonqulov)ga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

6. Shahar ichki ishlar bo‘limi (N.Sayidov) fuqarolarning xorijga chiqish, kirish uchun hujjatlarini rasmiylashtirishda geografik obyektlarni nomlariga alohida e’tibor qaratish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda geografik obyekt nomlarini to‘g‘ri yozilishini doimiy nazoratga olsin.

7. Mazkur qaror shahar gazetalarida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari A.Subxonqulov geografik obyektlarga nom berilganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlarni Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritish uchun o‘n kunlik muddatda Kadastr agentligiga taqdim etsin.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mavlonov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

XAMDAMOV KOBIL MURATKULOVICH

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-34-116-10-147-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Olmaliq shahrida yangi nom berilayotgan geografik obyektlar roʻyxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bogʻlanishi (mahalla)	Geografik obyektning amaldagi nomi	Shahar komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan nom	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Mavze	Abdulla Qahhor	Nomsiz	Yangi Oʻzbekiston	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.